

Yangi yoʻnalish boʻyicha parvozlari: Toshkent - Batumi - Toshkent

2022 27 Aprel

Uzbekistan Airways Oʻzbekiston va Gruziya hududlari oʻrtasidagi toʻgʻridan-toʻgʻri aviaqatnovlarni rivojlantirish uchun yangi yoʻnalishlarni yoʻlga qoʻyishni davom etmoqda.

2022-yil 21-maydan boshlab Uzbekistan Airways Toshkent - Batumi - Toshkent xalqaro yoʻnalishi boʻyicha mavsumiy parvozlarni amalga oshiradi.

Toshkentdan kurort shahriga aviaqatnovlar haftasiga ikki marta - chorshanba va shanba kunlari quyidagi jadval boʻyicha amalga oshiriladi:

chorshanba kunlari:

Toshkentdan uchish: 14:30

Batumiga qoʻnish: 17:15

Batumidan uchish: 18:45

Toshkentga qoʻnish: 23:00

shanba kunlari:

Toshkentdan uchish: 06:35

Batumiga qoʻnish: 09:20

Batumidan uchish: 10:50

Toshkentga qoʻnish: 15:05

Muhim: Gruziyaga kirish uchun emlanganlik haqidagi sertifikatning asl nusxasini taqdim etishingiz kerak. Aks holda, 10 va undan katta yoshdagi yoʻlovchilar PZR-testning manfiy natijasini taqdim etishlari kerak (amal qilish muddati 72 soat). Test

oldindan tasdiqlanishi va

https://registration.gov.ge/pub/form/8_protocol_for_arrivals_in_georgia/tk6157/

havolasida ro'yxatdan o'tkazilishi kerak.

Toshkent – Batumi yo'nalishi bo'yicha aviachipta narxi 2 386 569 so'mdan (bagajsiz) va 2 746 353 so'mdan (bagaj bilan), Toshkent – Batumi – Toshkent yo'nalishi bo'yicha esa 4 070 059 so'mdan (bagajsiz) va 4 621 728 so'mdan (bagaj bilan) boshlanadi.

Narxlar 27.04.2022 holatiga ko'ra amal qiladi.

Toshkentdan Batumiga aviaqatnovlar uchun aviachiptalarni www.uzairways.com saytida, Uzbekistan Airways Sales filialida va aviakompaniya agentlaridan xarid qilish mumkin.

Eslatib o'tamiz, 2019-yil o'rtalaridan boshlab Uzbekistan Airways Toshkent – Tbilisi – Toshkent yo'nalishi bo'yicha haftasiga ikki marta – seshanba va juma kunlari muntazam aviaqatnovlarni amalga oshirmoqda.